

**LAZGI RAQS SAN'ATI QADRIYATI VA BUGUNGI
KUNDAGI AHAMIYATI**

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali "Lazgi" bo'limi katta ilmiy xodimi
Xudayberganova To'xtajon Maxsud qizi
maqsudovna1@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari, qadimgi "Lazgi" raqs san'atining shakllanishi tarixi, dunyo xalqlari raqs san'atidagi ahamiyati, uning inson tarbiyasidagi o'rni, "Lazgi" raqs san'ati qadriyatlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: millat, lazgi tarixi, an'ana, qadriyat, raqs, milliylik, urf-odat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются национальные ценности узбекского народа, передаваемые из века в век, история становления древнего танцевального искусства «Лазги», его значение в танцевальном искусстве народов Узбекистана. мире, его место в воспитании человека, показаны ценности танцевального искусства «Лазги».

Ключевые слова: нация, история лазгин, традиция, ценность, танец, национальность, традиция.

Abstract: In this article, the national values of the Uzbek people that have been passed down from century to century, the history of the formation of the ancient "Lazgi" dance art, its importance in the dance art of the peoples of the world, its place in human education, "Lazgi" dance art 'ati values are displayed.

Key words: nation, Lazgi history, tradition, value, dance, nationality, custom.

Insoniyat tarixida har qanday millat asrlar davomida shakllangan va davr sinovlaridan o'tgan milliy-ma'naviy qadriyatlari, madaniyati va tarixiy xotirasi bilan yashasagina ma'lum kuch-qudratga ega bo'lishini ko'rsatuvchi dalillar ko'p. Bunda qadriyatlar mohiyatini qay darajada anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Shubha yo'qki, o'zbek xalqi o'zining buyuk davlatchilik tarixi, urf-odat va an'analari, dunyo tamadduni rivojiga qo'shgan hissasi, jahon hamjamiyati haqli ravishda e'tirof etayotgan milliy xususiyatlari bilan ana shunday millatlar qatoriga kiradi. Yangi O'zbekiston oldida turgan yangi vazifalar ichida ushbu buyuk maqomni yanada yuksak pog'onaga ko'tarish, xalqimizning intellektual darajasini rivojlanish alohida ahamiyatga ega. Shu bois, biz bugun milliy taraqqiyotning yangi cho'qqilarini egallash yo'lida dadil odimlamodamiz. Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishga erishish, xalq hayotining farovonlashuvini ta'minlash uchun davlatimiz rahbari taklif etayotgan

yangi istiqbolli yo'llar tanlanmoqda. Bunda odamlarning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorlik, fikr erkinligi, iqtisodiy rag'bat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham davom ettirilib qabul qilinsa, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, raqs san'ati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari, raqslari, urf-odatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Inson yaralibdiki, u bilan san'at tushunchasi doimo yonma-yon turgan. San'atning o'ziga xos buyuk kuchi, nozik latofati asrlar osha har bir insonni o'ziga jalb qilib kelgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, raqs san'atida odamlarning dunyoqarashi, ezgu maqsadlari, orzu-niyatlari, tashvish-u quvonchi barq urib turgan. O'zbek milliy raqslari tarixi naqadar qadimiy bo'lsa, Lazgi qalb raqsi durdonasi ham asrlar osha o'z qadriyat va an'alarini saqlagan holda rivojlanib, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik, tenglik, go'zallikni tarannun qilgan holda shakllanib kelgan.

O'zbek milliy raqsi eng munavvar qadriyatlarni, insoniy fazilatlarni, milliy an'analarni ifoda etgan san'atdir. Milliy raqslarimizdagi har bir harakat, ko'z qarashlar, faqat millatimizga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ular xalqimizning hayoti, yashash tarzi, zavq-u shavqi, orzu-umidini ko'rsatuvchi sahna asari, ohang va ritmga javoban inson yaralgan "aks-sado"dir. San'atshunos olim L.Avdeeva o'zining "O'zbek milliy raqsi tarixidan" nomli kitobida "Raqs- zamon va makonda mavjud san'at bo'lib, bunda badiiy obraz inson gavdasining ritmik uyushgan tasviriy va ifodali harakatlari bilan yaratildi", - deb yozadi. Xalqimiz madaniyatga boy xalq. Yurtimizning qay go'shasiga bormang, o'ziga xos an'ana, betakror qadriyatlarga ro'baro bo'lamiz. Shu jumladan, har bir hududning o'z milliy raqsi va milliy liboslari ko'nglimizni shod etadi. Raqs san'atining tarixi esa bevosita uni yaratgan xalqning tarixi bilan bog'liq.

Raqs — insoniy ifodaning eng qadimgi shaklidir. Inson tanasi va harakat tili yordamida nafaqat atrofidagi odamlarga ko'rsatadi, balki uning o'zi ruhiy va hissiy dunyo bilan ichki aloqaga chiqadi.

Raqs — qalam talab qilmaydigan san'atdir. Uning yagona quroli inson tanasi bo'lib, uning har bir harakatida raqs bor. Biroq, raqs nafaqat tananing, balki ruh va ongning ishtirokini ham talab qiladi. Uning sehrli olamiga butunlay sho'ng'ib ketgan odamlar esa oxirigacha unga sodiq qoladilar. Ammo u nafaqat sevimli mashg'ulot, balki ish, intizom, muloqot san'atidir. Ba'zida raqs so'zlardan ko'ra ko'proq narsani aytishi mumkin. Bundan tashqari, raqs tili universaldir, chunki uning chegarasi yo'q va qaysi tilda so'lashishimizdan qat'i nazar, hamma uchun tushunarli.

O'zbek xalqi san'atsevar xalq, ayniqsa, Xorazm xalqining san'atini bilmagan, eshitmagan va undan zavq olmagan o'zbekni topish qiyin. Bir necha o'n minglagan qo'shiqlar, kuylar, raqslar mavjud.

Bexos sehrli kuyga, qo'shiqqa solingan orombaxsh navo tarovati dilingizga xushnudlik bag'ishlaydi. Quloqqa yoquvchi ajib navo tanangizni junbushga keltirib qo'llarni harakatga keltirishga, ya'ni raqsqa chorlaydi. Tili, dini, millatidan qat'i nazar, o'ziga ohanrabodek tortadigan san'at namunasi – bu Lazgidir.

Bugungi kunda Xorazm “Lazgi” raqsi butun dunyoni maftun etmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. “Lazgi” raqsi O'zbekiston madaniy merosining elementi sifatida Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan. Bu haqdagi qaror 2019-yil 12-dekabr kuni YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasining 14-sessiyasida qabul qilingan. Prezidentimiz tashabbusi bilan har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan mazkur xalqaro festival ham “Lazgi” raqs san'atini asrab-avaylash va keng targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. YUNESKO, Turizm va madaniy meros, Madaniyat vazirliklari, Xorazm viloyati hokimligi va boshqa idoralar hamkorligida tashkil etilgan xalqaro festivalga dunyoning ko'plab davlatlaridan san'atshunos olimlar va soha mutaxassislari tashrif buyurgan. Festival doirasida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyada mamlakatimiz va xorijdan kelgan olim-u tadqiqotchilar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishgan edi. Unda “Lazgi”ning jahon raqs san'atida tutgan o'rni haqidagi fikrlar muhokama qilingan edi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada nafaqat o'zbek raqslari balki xorijiy raqslarning kelib chiqish tarixi, o'xshash va tutash jihatlari haqida ham so'z yuritilgan edi.

Bexos sehrli kuyga, qo'shiqqa solingan orombaxsh navo tarovati dilingizga xushnudlik bag'ishlaydi. Quloqqa yoquvchi ajib navo tanangizni junbushga keltirib qo'llarni harakatga keltirishga, ya'ni raqsqa chorlaydi. Tili, dini, millatidan qat'i nazar, o'ziga ohanrabodek tortadigan san'at namunasi – bu Lazgidir. “Lazgi” xalqaro raqs festivali doirasida raqs san'atiga bag'ishlangan ko'rgazma, milliy cholg'u asboblari va liboslari, hunarmandchilik buyumlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari,

haykaltaroshlik namunalari, badiiy va hujjatli filmlar, audio va video disklar, kitoblar, albomlar, fotosuratlar namoyishi hamda “Ichanqal’a” majmuasi hududida ularning savdosi tashkil etilgan. Festival doirasida o‘tkazilgan “Lazgi” raqs tanlovi 3 ta nominatsiya “Eng yaxshi yakkaxon raqs ijrochisi”, “Eng yaxshi raqs jamoasi” va “Eng yaxshi sahnalashtirilgan raqs” bo‘yicha baholangan.

Avvalo, raqs millat qalbining sadosi, qudratli tarbiya vositasidir. Har bir odam o‘z xalqining milliy raqsi, musiqasi va qo‘shiqlaridan ruhiy quvvat olib voyaga yetadi. Raqs san’atining inson qalbiga, ongiga ta’sir kuchi, qudrati beqiyosdir. Ulug‘ allomalarimiz inson tarbiyasida, ma’naviyatini yuksaltirishda raqsning ahamiyati naqadar yuksakligini doimo uqtirib kelgan. Zero, buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy yozganidek: “O‘z qadriyatini anglamagan odamdan badbaxtroq odam bo‘lmaydi”. Shu nuqtayi nazardan biz yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizni qadrlaydigan, madaniyatimizni ulug‘lab, uning tub mohiyatini anglaydigan insonlar etib tarbiyalash barobarida, insoniyatni to‘la ma’noda qadrlaydigan ulug‘ Navoiy avlodlari bo‘lib ulg‘ayishlari tarafdorimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Raximova G. “Qutlug‘ yo‘lda” Toshkent – 1999.
2. Matyoqubova G. “Ofatijon Lazgi” Toshkent – 2020.
3. “Lazgi” bo‘limi arxiv videolari.